



**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETIDA
2026-YIL 24-IYUNDA O‘TKAZILAYOTGAN**

**“MEVA-SABZAVOT YETISHTIRISHDA INNOVATSION USULLAR VA
HOSILDORLIKNI OSHIRISH MASALALARI”**

XALQARO ILMYIY-AMALIY ANJUMANI

AXBOROT XATI



TOSHKENT 2026

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyulda “Ma‘muriy islohotlar doirasida oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 200-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-apreldagi “Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 135-sonli qarori 8-ilova 9.1-bandi hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi “2026-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 11-son buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida Toshkent davlat agrar universitetida 2026-yil 24-iyun kuni “**Meva-sabzavot yetishtirishda innovatsion usullar va hosildorlikni oshirish masalalari**” mavzusida o‘tkaziladigan Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etishga taklif etamiz.

Anjuman tili: o‘zbek, rus, ingliz tillari.

Konferensiya an‘anaviy (oflayn) hamda masofaviy (onlayn) tarzda o‘tkaziladi.

ANJUMAN SHO‘BALARI:

1. Turli mintaqalarda meva-sabzavotchilik va uzumchilik, polizchilik hamda kartoshkachilikning hozirgi holati uni rivojlantirishi, mahsulot sifati va hosildorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni o‘rni.

2. Meva-uzum, sabzavot, poliz, va kartoshka ekinlarining seleksiyasi, urug‘chiligi, kam tarqalgan ekinlar introduksiyasi va yetishtirishni zamonaviy texnologiyalari.

3. Meva-uzum, sabzavot, poliz va kartoshka yetishtirishda kasallik va zararkunandalardan himoya qilishning innovatsion texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi.

4. Meva-uzum, sabzavot, poliz va kartoshka mahsulotlari sifati va hosildorligini oshirishda tuproq, organik va mineral o‘g‘itlarning ahamiyati.

5. Meva-uzum, sabzavot, poliz va kartoshka mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, quritish, qadoqlash va eksport salohiyatini oshirishning muammo va yechimlari.

ANJUMAN MATERIALLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Anjuman materiallari elektron to‘plam holda tayyorlanib barcha ishtirokchilarga yetkaziladi. Taqdim etilgan materiallar mavzuning dolzarbligi, o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, amaliy ahamiyati, tadqiqot uslublari, tajribalarning natijalari, ularning tahlili va xulosalari ifodalanishini zarur. Taqdim etilgan materiallar yuqorida qayd qilingan tartibda rasmiylashtirilmasa, maqola tezislari to‘plamiga kiritilmasligini va muallifga qaytarilmasligini ma‘lum qilamiz.

Konferensiyaga kelib tushgan maqolalar OAK ro‘yxatiga kiritilgan “**O‘ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI**” ilmiy jurnalida maxsus son sifatida tayyorlanadi. To‘plam konferensiya yakunlangandan 25 kun ichida veb saytga (<https://agroscience-tdau.uz>) joylashtiriladi.

Dolzarbligi. Maqola yuqorida keltirilgan sho‘balarga tegishli dolzarb mavzu bo‘yicha yozilishi va mustaqil tadqiqot natijalarini o‘z ichiga olishi, shuningdek ilgari nashr etilmagan yoki boshqa nashrlarga bundan keyin berilmasligi kerak.

Ma‘suliyat va javobgarlik. Mualliflar Tashkiliy qo‘mitaga yuborayotgan materiallarining mazmuni va savodxonligi uchun javobgardirlar. Shuning uchun puxta tayyorlash lozim.

Maqola hajmi 4-8 betgacha bo‘lishi, mualliflar soni 3 tadan ko‘p bo‘lmasligi tavsiya etiladi.

Rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar: Sahifa formati – A4 (210×297 mm); chegaralar (yuqorigi, pastki, chap va o‘ng tomonlar) – 20 mm; shrifti – kegl’ 14; tipi – Times New Roman; qator oralig‘i – 1,0; sahifalar raqamlanmaydi.

Maqolada ketma-ketlik tartibi:

1. (<https://agroscience-tdau.uz> veb saytidan topish mumkin).
2. Maqolaning sarlavhasi (**maqolaning rasmiylashtirish tiliga bog‘liq**).
3. Mualliflarning familiyasi, ismi va otasining ismi (**maqolaning rasmiylashtirish tiliga bog‘liq**).
4. Ilmiy darajasi va unvoni, ish yoki o‘qish joyi, shahri.
5. Muallifning elektron pochtasi.
6. Annotatsiya (100-200 so‘z) (**o‘zbek, rus va ingliz tillarida**).

7. Kalit soʻzlar (7-10 soʻz) (*oʻzbek, rus va ingliz tillarida*).

8. Maqola matni.

9. Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

Maqola sarlavhasi, annotatsiya va kalit soʻzlarni rus va ingliz tillariga tarjima qilishda Google tarjima, Yandex tarjima, PROMT va shu kabi tarjimonlardan foydalanishga ruxsat etilmaydi.

Annotatsiya. Maqolaning qisqacha mazmuni, shu jumladan dolzarbligi, maqsadi, tadqiqot usuli va olingan natijalar.

Kalit soʻzlar. Maqoladagi eng muhim boʻlgan va tadqiqot mavzusi hamda sohasini aniqroq tavsiflovchi soʻzlar.

Rasmlar va jadvallar raqamlangan boʻlishi, jadvallarning nomi jadval tepasida oʻrtada, rasmlarning nomi rasm pastki qismida oʻrtada joylanishi kerak.

Adabiyotlar «Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati» nomi ostida GOST R 7.0.5-2008 ga muvofiq rasmiylashtiriladi. Matnda roʻyxatda keltirilgan adabiyot raqami toʻrtburchak qavs ichida koʻrsatiladi. Masalan: [5], [2, 5].

Eslatma: Ilmiy maqolaning xajmi 4-8 betgacha boʻlgan holda elektron variantda topshirilishi lozim. Elektron variantda bitta faylda faqat bitta material boʻlishi kerak. Elektron variantdagi faylning nomi birinchi muallifning familiyasi va shoʻba raqamidan iborat boʻlishi kerak. Masalan: **D.Janakova. 5-shoʻba.rtf**.

Fayl **rtf* formatida saqlanishi lozim.

Maqola uchun toʻlov miqdori **250 000** (ikki yuz ellik ming) soʻm miqdorda belgilangan.

Berilgan maqolalar ekspertlar tahlilidan oʻtadi. Ilmiy-anjuman mavzusi va nashr talablariga javob bermaydigan, ekspertlar tahlilidan oʻtmagan maqolalar matni qabul qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Materiallarni quyidagi manzilga yuborishingizni soʻraymiz.

Anjumaning tashkiliy qoʻmitasi: Toshkent davlat agrar universiteti, Meva-sabzavotchilik va uzumchilik fakulteti.

Anjuman uchun masʼullar: Sabzavotchilik va issiqxona xoʻjaligini tashkil etish kafedrasi mudiri, dotsent Z.Abdiyev (+998 90 928-06-21), Mevachilik va uzumchilik kafedrasi mudiri, professor I.Namozov (+998 99 896-49-82).

Ilmiy maqolalarni Janakova Durdona (+99897-721-03-82) nomeri *Durdona Ulugbekovna* telegram orqali 2026 yil 24 iyungacha qadar qabul qilinadi.

Plastik raqam: 5614 6887 0311 5559 (Janakova Durdona).

“Meva-sabzavot yetishtirishda innovatsion usullar va hosildorlikni oshirish masalalari” mavzusi boʻyicha xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchisi toʻgʻrisida

MAʼLUMOT

Anjuman ishtirokchilarini roʻyxatga olish kartochkasi	
Familiyasi, ismi va otasining ismi (toʻliq)	
Ish yoki oʻqish joyi	
Lavozimi	
Ilmiy darajasi va unvoni	
Elektron pochta manzili	
Telefon raqami (shahar kodi bilan)	
Maʼruza mavzusi	
Anjuman yoʻnalishi	
Sana	

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet koʻchasi, 2-uy, TDAU